



QISHLOQ XO‘JALIGIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Ishmuratova Gulshan Davletmuratovna

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va
tadbirkorlik oliy maktabi MBA-Kichik biznes va tadbirkorlik tinglovchisi*

Annotatsiya: Maqolada agror sohada kichik biznes subyektlarini rivojlantirish yo‘llari keltiriladi. Qishloq xo‘jaligining inson xo‘jalik faoliyatidagi asosiy o‘rni insonlarni oziq-oqat mahsulotlari bilan ta‘minlashdan iborat. Ushbu sohani rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bu tarmoqda kichik biznesni ulushini oshirishdir. Sababi kichik biznes birinchi navbatda yangi ish o‘rinlarini yaratish, raqobatni kuchaytirish va boshqa qator imkoniyatlarni ochib beradi. Ma‘lumki, bugungi kunda barcha sektorda kichik biznesning ulushini oshirishiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Xuddi shu kabi aynan agrar sohada kichik biznesni qo‘llav quvvatlanishidan ko‘zlanayotgan maqsad ish o‘rinlari yaratish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va iqtisodiy barqarorlikni oshirishdan iborat. Maqolada sohada kichik biznes subyektlarining moliyaviy, yer va yer resurslariga ega bo‘lishdagi muammolari, texnologiya muammolari, kadrlar salohiyati va ekologik muammolar va ularning yechimi bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: agrar sektor, oziq-ovqat ta‘minoti, kichik biznes subyekti, moliyaviy yetishmovchilik, investitsiya, innovatsiya, kooperatsiya, davlat qo‘llab-quvvatlashi.

KIRISH

Iqtisodiyotning asosiy ahamiyat kasb etadigan va boshqa tarmoqlarga homashyo yetkazib beradigan, inson xo‘jalik faoliyatida birinchi bo‘lib paydo bo‘lgan tarmoq bu qishloq xo‘jaligi tarmog‘i hisoblanadi. Tarmoqning paydo bo‘lishi tosh davriga borib taqaladi. Shu davrdanoq insonlar bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonida asosiy kapital bo‘lib xizmat qilayotgan yer resursidan oddiy mehnat



qurollaridan foydalangan holda mahsulot yetishitira boshlagan va bugungi kungacha shu asnoda o'z ehtiyojlarining katta qismini qondirib kelishmoqda.

Soha aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, eksport hajmini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Kichik biznes subyektlari ushbu jarayonda muhim o'rin tutadi, chunki ular resurslardan samarali foydalanish, mahalliy bozorni qo'llab-quvvatlash, eksport salohiyatini oshirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, monopoliyani cheklash va raqobatni kuchaytirish orqali sifat ko'rsatkichini yuqori bosqichga olib chiqish, katta kompaniyalarga nisbatan inqiroz paytida tezroq moslashishi va va innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlariga ega. Shu bilan birga kichik biznes subyektlari faoliyatida bir nechta muammolar sodir bo'lmoqda, jumladan, moliyaviy yetishmovchilik, yer ajratishdagi byurokratik to'siqlar, marketing strategiyalarining sustligi, ekologik muammolar va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishdagi cheklovlar. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligidagi kichik biznes subyektlarini rivojlantirish yo'llari va ularni samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Qishloq xo'jaligida kichik biznes subyektlarining ahamiyatini bilish uchun dastlab kichik biznes subyekti tushunchasiga to'liq izoh berish talab qilinadi. Kichik biznes subyektlari - mustaqil mulk egaligiga, xo'jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o'z tarmog'ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik biznes subyektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Masalan, AQShda ko'pgina tarmoqlarda ishlovchilar soni 100 kishidan, ishlov beruvchi sanoatda 500 kishidan kam xodimlar ishlaydigan korxonalar kichik biznesga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining joriy, amaldagi milliy iqtisodiyotida biznes subyektlari mamlakat qonunchiligiga asosan kichik, o'rta va yirik biznes subyektlariga bo'linadi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida "O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun loyihasi



birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi. Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq 5 000 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Ularning tarqoq holda va nihoyatda ko'p miqdorda qabul qilinganligi zarur bo'lgan qonunchilik hujjatini topish hamda amalda qo'llashda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Mazku kodeksni qayta ko'rib chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2025-yil 22-yanvardagi 358-V-son qarori qabul qilindi. Biroq qo'shimcha manbalarni o'rganish natijasida iqtisodiyot nazariyasida biznes subyektlarini quyidagicha tasniflanishini o'rganish mumkin:

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni 5-mollasida yakka tartibdagi tadbirkorlar(YATT), ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tarmoqlardagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan mikrofirmalar kichik tadbirkorlik subyektlari deb belgilangan.

Qishloq xo'jaligi bo'lsa, moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'linadi:

Dehqonchilik – don, poliz, mevali va sabzavot ekinlarini yetishtirish;

Chorvachilik – mol, qo'y, echki, ot parranda va boshqa hayvonlarni boqish;

Bog'dorchilik va uzumchilik – mevali daraxtlar va uzumzorlarni parvarish qilish;

Pilla va asalarichilik – ipak qurti va asalarilarni boqib, ipak hamda asal mahsulotlari yetishtirish kabi yo'nalishlar.

Qishloq xo'jaligi sohasi orqali aholi oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo'jaligining bir qancha tarmoqlari xom-ashyo bilan ta'minlanadi. Qishloq xo'jaligi o'simlik va hayvon mahsulotlarini dastlabki qayta ishlashning turli tarmoqlarini ham o'z ichiga oladi. Moddiy ishlab chiqarishning boshqa jami sohalaridan farq qilgan holda qishloq xo'jaligi juda katta maydonlarda va hududiy xilma-xil sharoitlarda olib



boriladi. Unda yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, yorug‘lik, issiqlik, suv va tirik organizmlar — o‘simlik va hayvonlardan foydalaniladi. Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish davri ish davri bilan mos tushmaydi. Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari — dehqonchilik va chorvachilik hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi — inson xo‘jalik faoliyatining dastlabki turlaridan biri. Uning kelib chiqishi tosh davri oxiriga borib taqaladi. Bu davrda inson xo‘jalik va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun yerni oddiy qurollar bilan ishlagan, ba’zi hayvonlarni xonakilashtira boshlagan. Asrlar davomida turli sharoitlar ta’sirila dehqonchilik tizimi o‘zgargan va takomillashgan; hayvonlarning foydali xususiyatlari parvarishlangan, ko‘plab zotlari yetishtirilgan.

Yuqorida mavzuga oid hisoblangan va maqolaning asosiy mohiyatini o‘zida aks ettiradigan ikkita tushuncha – kichik biznes subyekti va qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘yicha yetarli tushuncha keltirib o‘tildi.

Quyida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy veb sayti – stat.uz saytidan olingan statistik ma’lumotda kichik biznes subyektlari tomonidan o‘tgan 2023-yil va 2024-yillar davomida respublika hududining viloyatlari kesimida qancha miqdordagi mahsulotlar ishlab chiqarilganligini ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi to‘g‘risida

Qishloq xo‘jaligida kichik biznes subyektlarini rivojlantirish yo‘llari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Aholi xonadonlarida mavjud uy va dala tomorqa yer maydonlaridan samarali foydalanish. Uy sharoitida qishloq xo‘jaligi faoliyatlarini, jumladan, chorvachilik (qoramol, parranda, qo‘ychilik), parrandachilik, meva va sabzavot yetishtirish, issiqxona tashkil qilish va boshqa shu kabi yo‘nalishlarni tashkil qilish lozim. Shu orqali birinchidan xonadondagi ishsiz fuqarolarning bandligi ta’minlanadi, shuningdek, daromad manbayi yaratiladi, qolaversa pirovard mahsulot yetishtirilishi natijasida qo‘shimcha oziq-ovqat ta’minoti paydo bo‘ladi. Bu yo‘l orqali dastlab o‘z



faoliyatini jismoniy shaxs sifatida boshlagan fuqarolar keyinchalik kichik biznes subyektiga aylantirish imkoniyatlari yaratiladi;

Kichik biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratish orqali qishloq xo'jaligi sohasida ularni qo'llab-quvvatlash. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.04.2024-yildagi PQ-149-son qarori ijrosi yuzasidan 2024-yil 1-apreldan boshlab dasturlar doirasida kreditlar o'zini-o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga:

a) 33 million so'mgacha, bir yildan so'ng ushbu qarz oluvchining tadbirkorlik faoliyati samaradorligi, qarzning maqsadli ishlatilganligi hamda zaruratga qarab guruh kafilligi (kamida 3 nafar fuqaro) bilan qo'shimcha 50 mln so'mgacha;

b) ushbu kreditlardan tomorqani rivojlantirishning bir nechta yo'nalishlarida (parrandachilik, quyonchilik, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik va ixcham issiqxona) foydalanishi uchun;

v) yer maydoni 10 sotixdan ortiq bo'lgan tomorqa yer egalariga va ijarachilarga 50 mln so'mgacha garovsiz;

g) 10 sotixli ixcham issiqxonalarni barpo etish va baliqchilik faoliyatini tashkil etish uchun 100 mln so'mgacha garovsiz ajratilib kelinmoqda. Ushbu kreditlar yuqoridagi qarorga muvofiq 3 yildan 4 yilgacha muddatga 6 oydan 1 yilgacha imtiyozli davr bilan yillik Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada, ya'ni 17,5 foiz stavkada ajratilmoqda.

Sohada kichik biznes subyektlarini rivojlantirishning ikkinchi yo'li sifatida mazkur imtiyozli kredit shartlarini yanada yengillashtirish lozim. Tadbirkorlarga qulay moliyaviy shartlar asosida asosan muddatini uzaytirish va yillik foiz stavkasi – 17,5 foizni pasaytirish.

Xususiyl sektoridagi jismoniy va yuridik shaxslarning o'z mablag'lari hisobidan investitsiya kiritishni qo'llab-quvvatlash, sohada soliq imtiyozlarini joriyl qilish orqali sohada kichik biznes subyektlarini rivojlantirish;

Davlat tomonidan sohada grantlar tartibini takomillashtirish, shuningdek, bugungi kun amaliyotida ko'rish mumkin subsidiya ajratish ishlari olib borilmoqda. Ushbu amaliyotni uzoq muddatli miqdori yetarli darajadagi limitlangan ssudalar



ajratish islohoti bilan almashtirish lozim. Sababi agar talab qilinadigan miqdordagi moliyalashtirish manbai mavjud bo'lsa, kishloq xo'jaligidagi loyihalarni to'liq moliyalashtirish imkoniyati paydo bo'ladi;

Davlat dasturlari asosida sohada imtiyozli shartlar asosida imkoniyatlar yaratib berish. Misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2021-yildagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-20-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.04.2024-yildagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-153-son qarorlarini kelitirish mumkin;

Malakali kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Kichik biznes subyektlari quyidagi jihatlari bilan qishloq xo'jaligida muhim rol o'ynaydi:

- mahalliy bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash;
- ish o'rinlarini yaratish va qishloq aholisi daromadini oshirish;
- innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali milliy iqtisodiyotga hissa qo'shish.

Xulosa

Qishloq xo'jaligidagi kichik biznes subyektlari iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning samarali faoliyat yuritishi uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni joriy qilish, kooperatsiyalarni rivojlantirish va marketing strategiyalarini mustahkamlash talab etiladi. Shuningdek, davlatning tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati kichik biznes subyektlari o'sishi va rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Shu sababli, kichik biznes subyektlarini rag'batlantirish va ularga qulay muhit yaratish qishloq xo'jaligi tarmog'ining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati tahlili**

Tadqiqotni o'rganish davomida mavzuni qonuniy asoslantirish maqsadida qonunchilik hujjatlaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori foydalanildi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasining logosi, Birinchi jildidan esa asosiy tushunchalarga nazariy izoh kelitirishda foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb saytidan statistik tahlil usuti uchun zarur bo'lgan statistik ma'lumotlar olindi. Shuningdek, sohaga oida rejalashtirilgan chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PQ-300-son ““O'zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroridan olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 22.01.2025-yildagi 358-V-son qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PQ-300-son ““O'zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori;
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasining logosi, Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil;
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb sayti – stat.uz;
5. “Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali Toshkent 2024 yil <https://lex.uz>